

**ALPOMISH DOSTONI HAQIDA ISHLATILADIGAN AYRIM ARXAIIK
SO'ZLARNING O'ZBEKCHA SHARHI**

Denov tadbirkorlik va pedagogika

*Institutining Filologiya Fakulteti Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi:ingliz tili 2-
bosqichi 206-guruh talabasi.*

Xidirova Muharram Elmo'min qizi

Annotation

O'zbek xalqining ulug' dostoni „Alpomish" dostoni bilan tanishar ekanmiz,dostonda o'zbek xalqining azal-azaldan iymon-e'tiqodi,or-nomus birligi yo'lida o'zini ayamasligi hamda xalqimizning qadimgi urf odatlari yorqin aks etirilgan. „Alpomish" dostoni baxshilar tomonidan qirqdan ortiq nusxalari yozib olishgan, lekin Fozil Yo'ldosh o'g'li ijro etgan nusxa voqealari qiziqarliligi,ifodaning ta'sirchanligi va o'zbek xalqining ruhiyatiga xos belgilarni aks ettira olishi bilan ajralib turadi.

Kalit so'zlar: "Alpomish" dostonining matni ustida ishslash o'qituvchidan katta mas'uliyatni talab qiladi. Chunki, o'qituvchi birgina shu doston misolida butun o'zbek xalq dostonchiligi, uning mazmun-mohiyati, badiiy adabiyotda tutgan o'rni, xalqimiz ma'naviyatiga ta'siri, talabalarning komil inson bo'lib yetishishlaridagi ulkan vazifasi, bir so'z bilan aytganda, dostonchilikka xos bo'lgan badiiy estetik funksiyasi haqida ma'lumot bermog'i lozim.

Suyukli yorini qutqarish uchun yo'lga otlangan Alpomishning holati talabaning ko'z o'ngida namoyon bo'lar ekan, o'qituvchi talabalarga aynan o'sha o'rnlarni o'qib, shu tasvirlar orqali qahramonning ruhiy olamini talabaga uqtira olishi kerak.

Siltab yuradi Boychibor,
Yaqin bo'lar uzoq yo'llar,
Yo'l yurar davlatli shunqor,
Qalmoq yurtini axtarar,
Yolg'iz ketdi bunda shungor.
Hakimbek qildi g'ayratdi,
Qiladi otga shiddatdi,
Izhor cho'lni to'zon tutdi
Yo'lning tanobini tortdi[4.82-b].

Qahramonning yo'l taassurotlari shoir tomonidan bayon etishda she'r vaznining o'ynoqi va yengil bo'lishiga ahamiyat beradi. Xuddi, ot yo'rtib yoki chopib borayotganidek, qahramonning ruhiyati ham shu kayfiyatda bo'ladi. She'rdagi bo'g'inlar va turoqlar soni shunga qarab o'zgarib boradi. Otlar chopishi, jang

manzaralari, personajlarning tezkor va shiddatli harakatlari aks etgan o'rinalar yetti-sakkiz bo'g'inli she'rlar bilan ifodalanadi.

Dostonda betakror an'analar, ota-bola munosabati, farzand tarbiyasi, yoshlarning ishq-muhabbatga qarashi, do'stlik va unga turfa xil munosabat kabi g'oyalari badiiy lavhalarda kuylangan.Ush bu asarni o'qishda sharhlab o'qish orqali, biror bir asar matnini izohlash jarayonida o'quvchilar notanish so'z ma'nosi bilan, ayrim so'zlarning ko'chma ma'nosi yoki bir so'zning bir necha xil ma'nolari bilan tanishadilar. Sharhlab o'qitish usuli quyidagicha amalga oshiriladi.

1. Lingvistik sharh. Tushunilishi qiyin so'zlar, ma'nosi notanish va noaniq so'zlar izohi. Sharhning bu turini quyidagi so'zlar qamrab oladi: arxaik so'zlar, tarixiy so'zlar, dialektizm, arab-fors so'zları izohi. So'zlarni shu tarzda izohlash uning qaysi tilga mansubligi haqida ham ma'lumot beradi.

2. Tarixiy milliy sharh. Bu xil sharhda qadimiy milliy urf- odatlar, an'analar, udumlar bilan bog'liq bo'lgan so'zlar izohlanadi.

3. Tarixiy adabiy sharh. Bunda adabiy asarlardagi tarixiy davr bilan bog'liq so'zlar izohlanadi.

„Aplomish" dostonidagi **lingvistik sharhli** so'zlar:

- **Paygabet-** bo'sag'a, eshikka yaqin joy;
- **Turbat-** bu yerda ostona ma'nosida;
- **Juz'ya-** g'ayrudinlarga solinadigan katta miqdordagi soliq;
- **Tabla-** ot bog'laydigan joy, otxona;
- **Lo'k-** yuk tashiydigan tuya;
- **Norcha-** yosh erkak tuya;
- **Qaba-** tartibsiz, o'zgaruvchan;
- **Eliboylar-** chorvadorlar;
- **Burum-** soch o'rimi;
- **Shabgir tortish-** tinmaslik, dam olmaslik;
- **Shobir-xabar,** ovoza, belgi;
- **Chuyda-bo'yin** surtidagi yo'g'on tomir;
- **Suqsur-** makiyon o'rdak;
- **Tangqa taylab-** tog'ni egallab;
- **Moya-** urg'ochi tiya;
- **Shibanib -** yeng shimarib, shaylanib;
- **To'sat-to'sat-** to'da- to'da, guruh-guruh;

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining 9-sinf uchun darslik, 1- qism. - Toshkent. 2014-yil, 8-bet.

2. Mirzayev T., Jabbor Eshonqul, Selami Fidokor. "Alpomish" dostonining izohli lug'ati.
3. Sharipova M. O'quvchi yoshlar tarbiyasida o'lmas an'ana va marosimlarning ahamiyati //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). 2020. Т. 1. - №. 1.
11. Sharipova M. Qahramonlik eposi-milliy madaniyatimizning nodir xazinasi ("Alpomish" dostoni misolida) //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz).-2020.
4. Uraeva, D. S., Sharipova, M., B., Zaripova, R. 1., & Nizomova, S. S. (2020). THE EXPRESSION OF THE NATIONAL TRADITIONS AND BELIEFS IN UZBEK PHRASEOLOGICAL UNITS. Theoretical & Applied Science,
5. Baxshilloyevna M. S., Shuhratovna M. S. Description and interpretation of wedding customs in the epic " Alpomish" //Middle European Scientific Bulletin.2021. Т. 11. 9.